Yuldashev Ilxomjon Shavkat o‘g‘li
Namangan davlat universiteti o’qituvchisi
E-mail: ilkhomjony@gmail.com

DZYUDOCHILARNI TAYYORGARLASHNING BOSHLANG‘ICH BOSQICHIDA MUSOBAQA FAOLIYATINING METODIK USULLARINING QO‘LLANILISHI

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.10201742

Annotatsiya. Ushbu maqolada dzyudochilarni tayyorgarlashning boshlang‘ich bosqichida musobaqa faoliyatining metodik usullarining qo‘llanilishi masalalari yuzasidan mamlakatimiz va horijiy olimlarning fikr va mulohazalari tahlili keltirilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichi, dzyudochi, musobaqa faoliyati, vosita va usullar

Kirish.

Dzyudochilarning boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida musobaqa faoliyatida metodik usullarni samarali qo‘llashni aniqlash maqsadida, biz tayyorgarlikning asosiy qonuniyatlariga asoslanuvchi, pedagogik loyihani ishlash shakllaridan biri sifatida tushunchaga ega bo‘lgan modellashtirish uslubini qo‘lladik. Pedagogik tadqiqotlarda, lozim bo‘lganda pedagogik jihatdan loyiha tuzish, loyihalashtirish va modellashtirish uslublari qo‘llaniladi. Pedagogik loyiha tuzish, taxmin qilinayotgan yoki bo‘lishi mumkin bo‘lgan ob’ektning holati yoki loyihasi, timsoli, namunasini tuzish jarayoni sifatida tushuniladi. Pedagogik loyihalashtirish – loyihani barpo etish sifatida, tuzilgan loyihani keyingi detallashtirish, aniq sharoitda, tarbiyaviy munosabatda uni ishtirokchilarda qo‘llash uchun yaqinlashtirish tushunchalarini beradi. (F.Kerimov, M.Umarov, [8; 275-b]; M.R.Kudaev, [9; 168-b]; D.Yu.Akkuin, [1; 11-15] va boshqalar). Maxsus ilmiy va ilmiy-uslubiy adabiyotlarda “modellashtirish” tushunchasiga ko‘pgina izohlar berilgan. “Modellashtirish (fransuzcha modele – namuna, timsol) – o‘rganish uchun maxsus tuzilgan ba’zi ob’ektning xususiyatini boshqa ob’ektda qayta tiklash model deb ataladi. Mualliflarning ta’riflashi bo‘yicha, model deganda, hayolda tasavvur qilingan yoki moddiy amalga oshirilgan tizim tushunilib, u tadqiqot ob’ektini ifoda etadi yoki qayta tiklaydi hamda uni shunday almashtirishga qodirki, uni o‘rganish bizga bu ob’ekt haqidagi yangi axborotni beradi. Barcha modellar ularning asosini tanlash orqali bog‘liq tarzda tasniflanadi. Tasniflash uchun asos, modelni tasvirlash sifatida kelgan vosita, uni yanada chuqur anglash maqsadi orqali u yoki bu voqelik qismini qayta tiklash orqali aniqlanadi.

Asosiy qism.

Ilmiy adabiyotlar tahlili modellashtirishning ilmiy-amaliy uslub sifatida sport sohasiga chuqur kirib borganligidan dalolat beradi. XX asrning ikkinchi yarmida modellashtirish uslublari sport ilmida alohida o‘rin egallay boshladi. Ulardan, ham sportda bashorat qilish ob’ektlarini o‘zgarishga moyilligi haqidagi ob’ektiv ma’lumotlarni boshlang‘ich axboroti sifatida, umuman, sport faoliyati va xususan, o‘quv-mashg‘ulot jarayonining kelajakdagi yo‘nalishlari va natijalarini rivojlantirish haqidagi ekspertlarning fikr-mulohazalari sifatida foydalanilgan.

Modellashtirish uslublarini ishlab chiqish va keyinchalik uni joriy qilish, sportda tizimli tadqiqotlarni rivojlantirishning muhim bosqichi ekanligini ko‘rsatadi. Sportchi shaxsiyatining modellashtirish va bashorat qilish tartibidagi masalalar sport ilmining ahamitga molik va istiqbolli ilmiy yo‘nalishlaridan biri sifatida ko‘rib chiqilgan.

Modellashtirish ilmiy jihatdan bilish (anglab yetish) uslubi sifatida predmetlarning va voqea-hodisalarning shakllari yoki ba’zi xususiyatlarini o‘rganish, qaytarish maqsadida qayta tiklashni o‘zida namoyon

etadi. Ya'ni modellashtirish uslubini tadqiq etilayotgan ob'ekt haqidagi bilimlarni bevosita o'rganish yo'li bilan emas, balki modeldagi o'xshash voqea-hodisalarni o'rganish yo'li bilan egallashga yordam beradi.

Bir qator mualliflarning ta'kidlashicha, taklif qilingan modellashtirishni tasniflash barcha modellarni uchta turga bo'ladi: 1) jismonan moddiy; 2) moddiy-matematik; 3) mantiqiy-matematik. Boshqa tasniflardan farqli o'laroq, bu tasnifda xayoliy va moddiy (ob'ektiv ravishda mavjud bo'lgan) modellashtirishni bir butun qilib birlashtirgan (yaxlit holga keltirgan) moddiy-matematik modelning oraliqdagi (o'rtadagi) turi kiritilgan. Mualliflar birinchi turga jismoniy, kimyoviy yoki biologik tabiatga ega bo'lgan, o'rganilayotgan voqea-hodisani tabiat bilan o'xshash, odatda, geometrik jihatdan asliga o'xshashlikni saqlab qolgan va u bilan faqat tadqiq etilayotgan voqea-hodisalarning hajmi, tezlik oqimi va ba'zida materiali bilan farq qiladigan modellarni kiritganlar.

Ikkinchi turga timsoldan farqli o'laroq, yuqori jismoniy, kimyoviy yoki biologik tabiatga ega bo'lgan, biroq matematik bayonda asl holatdagi model bilan bir xil bo'lishi mumkin bo'lgan modellar kiradi. Mazkur mavhumlik darajasi, mualliflar nuqtai nazariga ko'ra, ushbu tip modelini sportga kiritish uchun yordam beradi; a) benuqson sportchiga nisbatan model xususiyatlari talablarini ishlab chiqish; b) mashg'ulotlarda bellashuv sharoitlarini modellashtirish ("bellashuv olib borish sharoitlariga o'rgatish" deb atalgan); v) sportchilardan talab qilingan jismoniy sifatlar, sport texnikasi va taktik fikrlashni takomillashtirish uchun ta'limning texnik vositalari, axborot, turli xildagi dasturiy trenajerlarni qo'llash; g) o'quv-mashg'ulot jarayonini rejalashtirishning yangi tizimlarini ishlab chiqish.

Uchinchi turga, belgilardan loyihalashtirilgan modellar kiradi. Mazkur modelda timsolning va modelning jismoniy, kimyoviy yoki biologik xususiyatlari hech qanday rol o'ynamaydi. Uchinchi turdagi modelda faqat toza mantiqiy va matematik xislatlar muhim. Ushbu modellar mavhum modellarga kirib, mantiqiy-matematik deb ataladi. Mantiqiy modellashtirilganda qiziqish uyg'otgan ob'ekt haqidagi yangi bilimlarni modelning dastlabki bayonidan mantiqiy va matematik xulosalar yo'li bilan olinadi va bu jismoniy yoki moddiy-matematik modellashtirishlarda umuman mumkin emas [4; 28-b].

Sportda mazkur turga o'zaro bir-biriga bog'langan modellar kiradi: a) miqdoriy parametrlar bilan qayd etiladigan sport turlarida sport natijalarining o'sishi (m,kg); b) mashg'ulotlarni yaxshi o'zlashtirganlik darajasi; v) jismoniy sifatlarning tuzilishi; g) sportchi texnik mahoratining tuzilishi; d) muhim musobaqalarga tayyorlanishda sportchi tayyorligining barcha tomonlarini o'zaro bog'liqligi; ye) sportchining musobaqa faoliyatida ishonchlilik darajasi; j) sportchilar tayyorgarligi tizimining barcha tomonlarini o'zaro bir biri bilan bog'liqligi.

Sportda matematik modellar miqdoriy ko'rsatkichlarga ega sport turlarida sport natijalarini bashorat qilish uchun, muhim musobaqalarga sportchining tayyorgarlik darajasini statistik model xususiyatlarini ishlab chiqishda, sport tayyorgarligining ma'lum bir jihatlariga bo'lgan talablarni hamda xususiyatlarni aniqlovchi istiqbolli yosh sportchilarni saralash bo'yicha reja ishlab chiqishda katta axamiyatga ega. Vaqt o'tishini hisobga olish vositasiga qarab, matematik model ikkita turga: statistik va dinamik turga bo'linadi.

Statistik model – bu, vaqt o'zgaruvchanligi parametrining hisoblanmagan modelidir, dinamik modelda esa, o'zgaruvchanliklardan biri vaqt hisoblanadi. Statistik va dinamik modellar o'rtasidagi farq shartli yoki ochiqdan-ochiq ifodalangan bo'lishi mumkin.

Bashorat qilishni ishlab chiqaradigan tomonlar soniga qarab, matematik modelni ikki turga bo'lish mumkin: tavsifiy model - bunda rasmiy jihatdan tomonlar yo'q, bashoratlar asosida va normativ tarzda qaror qabul qiladilar. Normativ modellar

uchun ham ikki – optimallashtirilgan model va nazariy-o‘yin turlari xosdir. Agar bashoratlar asosida qaror qabul qilgan faqat bir dona ishtirokchi, ya’ni bir tomonga o‘zgarsa, u o‘zgaruvchan boshqarishni shunday tanlaydiki, samaradorlik ko‘rsatkichi sport faoliyati maqsadidan kelib chiqqan holda maksimal yoki minimal ahamiyatni o‘ziga oladigan bo‘ladi, bunda normativ model optimallashtirish modeli turiga kiradi. Nazariy-o‘yin modellarida manfaatdor bo‘lgan tomonlarning ko‘pligida o‘yin nazariyasi apparati va matematik dasturlash uslublari qo‘llaniladi, (kutilgan natijalarni olish uchun juda ko‘p miqdorda o‘zgaruvchanlik kiritiladi).

Muallifning ta’kidlashicha [6; 19-21-b], har bir jismoniy yoki matematik model quyidagi asosiy xususiyatlarga ega bo‘lishi lozim: modellashtirilayotgan ob’ektga ob’ektiv ravishda mos kelishi; bilishning ma’lum bosqichida bilish mumkin bo‘lgan ob’ektni almashtirishga qodir bo‘lish; tadqiqot ishlarida tajriba orqali tekshirishga yo‘l beradigan ba’zi axborotlarni berish; model axborotlari modellashtirilayotgan ob’ektning o‘zi haqidagi axborotlarga o‘tishida ba’zi yetarli aniq ma’lumotlarga ega bo‘lish.Shunday qilib, avval ishlab chiqilgan modellashtirish asoslari sport sohasida modellashtirish muammolari quyidagicha – sportchi (uning mahoratining model xususiyatlari, uning natijalarini bashorat qilish orqali); sport mashg‘ulotlari tartibi va sport tayyorgarligi tizimlarida (mashg‘ulot sharoitini modellashtirish, uning rejalashtirish modellari va boshqalar). Sportda pedagogik modellashtirishni amalga oshirishning asosiy muammolarini hal qilish doirasida “bo‘lajak sportchining modeli”, ya’ni “namunasini shakllantirish” “eng kuchli sportchilarning model tavsiflari” [3; 47-49-b] haqidagi tasavvurlar ishlab chiqilgan.

Sportchilar ko‘p yillik tayyorgarligining bosqichliligi munosabati bilan [4; 28-b] sportchining holati haqidagi ma’lumotlar olinganidan so‘ng tuziladigan benuqson model va joriy modellarga ajratilgan: model va benuqsonlik modellari oxirgi maqsadga erishish uchun lozim bo‘lib, bu modellar sportchilarni tayyorlashning mashg‘ulot jarayonini boshqarish yo‘llari sifatida aniqlangan. Sportchining kompleks holati haqida olingan axborotlar asosida murabbiy, uning tayyorgarlik dinamikasini hisobga olgan holda, mashg‘ulot jarayoniga o‘zgartirishlar kiritadi.

Biroq mos keladigan modellarni qo‘llagan holda mashg‘ulot jarayonini boshqarish uchun bu model tuzilishi asosida yotgan modelning tarkibiy qismlarini aniqlab olish lozim. Masalan, sportchining model tavsiflari sport takomillashtirish parametrlari, terma jamoaga sportchilarni saralash uchun asosiy yo‘nalish bo‘lib hisoblanadi. Muallifning [3; 47-49-b] fikriga ko‘ra, har bir sportchining mashg‘ulot jarayonlaridagi natijasida o‘tkazilishi lozim bo‘lgan eng kuchli sportchilarning maqsadi sifatidagi model bilimlarisiz, sport mashg‘ulotlarini samarali boshqarish muammosini hal qilib bo‘lmaydi.Sport mahoratining muhim komponentlar uchun normativ talablar hisoblangan model tavsiflari sportchini mas’uliyatli musobaqalar davrigacha erishishi lozim bo‘lgan tayyorgarlik holatini tavsiflaydi.

Mas’uliyatli musobaqalarda natijalardan kelib chiqqan holda bashorat qilingan sport natijalariga erishish uchun ta’sir etadigan ancha ahamiyatga molik model xususiyatlari ajratib ko‘rsatilgan. Bunday model xususiyatlari qatoriga ularning sport faoliyatidagi yoshi va staji, morfologik xususiyatlari, maxsus (jismoniy, texnik, taktik, psixologik, funksional va nazariy) tayyorgarlik darajasi ko‘rsatkichlari, kuchli jismoniy va psixologik yuklamalardan keyin o‘zini tiklash qobiliyati va salomatlik holati kabilar kiritilgan. Modellashtirishga falsafiy yondashish pedagogik model ta’limini murakkab ijtimoiy voqea-hodisa sifatida tuzilishi mumkinligini va har qanday bilim sohasida, jumladan, sport sohasida mazkur jarayonning o‘tishini umumiy qonuniyatlari va o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash asosida modellashtirishning algoritmini izlash bel-

gilab berilgan.

Qator mualliflarning [2; 95-b,215; 5-103-b] fikriga ko‘ra, pedagogik modellarning asosiy tuzilishi va funksional jihatlari quyidagi o‘zaro bog‘liq bo‘lgan bloklar hisoblanishi mumkin: a) tashqi omillar; b) modellashtirilayotgan ob’ektning ishlashini aniqlovchi ichki omillar; v) o‘quv-mashg‘ulot jarayoni; g) o‘yinga oid faoliyat; d) boshqarish; e) sportchilarni samarali tayyorlashni baholash mezonlarining majmui.

Qarama-qarshi modellashtirishning pedagogik usullari yetarli darajada ko‘pdir. Yu.A.Shaxmuradovning [12; 60-b] fikriga ko‘ra, ulardan eng ko‘p tarqalganlari quyidagilar hisoblanadi:

- texnik-taktik harakatlarni yoki ularning alohida jihatlarini vaziyatga qarab modellashtirish;
- ma’lum bir qonun-qoida bo‘yicha o‘yinga oid qarshilik ko‘rsatish;
- musobaqa qarama-qarshiliklarining ko‘rinishlari va vaziyatlarini funksional modellashtirish.

Bunda mashg‘ulot vazifalarini modellashtirish uchun sport kurashlari texnikasi va taktikasi jihatlarining tasnifi hamda eng kuchli kurashchilarning musobaqa faoliyati tahlili natijalari asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Bunday holatda predmet taxlili bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

- jahonda yetakchi dzyudochilarning arsenalini tashkil etgan, tehnik-taktik harakatlarning samaradorligi;
- bellashuv olib borish taktikasi;
- sport kurashi bo‘yicha mas’uliyatli halqaro musobaqalarda zamonaviy hakamlik amaliyotining o‘ziga xos xususiyatlari.

Taktik faoliyatni modellashtirishni quyidagi to‘rtta asosiy vazifalarni hal qilishi mumkin:

1. Musobaqalarda kurashchilar o‘zlari qo‘llaydigan barcha harakatlarga ega bo‘lishlari, ya’ni murabbiy har bir shogirdi aniq bir harakat maqsadiga erishishi uchun mos ravishdagi usulni tanlashi lozim.

2. Hujum harakatlarini olib borish uchun tayyorgarlik amaliyoti doirasini kengaytirish.

3. Texnik harakatlarni bajarganda birinchi harakatdan ikinchisiga va undan uchinchisiga o‘tishni bir-biriga bog‘lab olib borish.

4. Sanab o‘tilgan barcha mahorat va malakalarni mashg‘ulotlarda, nazorat bellashuvlarida va musobaqa bellashuvlarida takomillashtirish; musobaqa faoliyati jarayonida musobaqada ishtirok etishning taktikasini egallash [10; 22-b].

A.D.Suxanov va boshqalarning ta’kidlashicha, musobaqa faoliyatini muvaffaqiyatli modellashtirish uchun quyidagi mashg‘ulotlar guruhi usullaridan foydalaniladi: a) raqibsiz (o‘qitishning birinchi bosqichida); b) yordamchi moslamalar (manekenlar va boshqalar bilan) shartli raqib bilan; v) raqib bilan (yordam beruvchi va qulay vaziyatni keltiruvchi); g) sherik bilan (qarshilik ko‘rsatuvchi raqib bilan).

Musobaqa faoliyatini takomillashtirish, xatolarni to‘g‘rilash va usulni bajarilishini oqilona tashkil etish hamda juda ko‘p turli-tuman dinamik vaziyatlarda turli raqiblar bilan usullarni bajarish mahoratiga ega bo‘lish maqsadida amalga oshiriladi. Bunda usullarni samarali bajarish uchun jismoniy va irodaviy sifatlarni rivojlantirish lozim [13; 40-b].

Bellashuvni olib borish malakasini egallash jarayonida uch xil yo‘nalishdagi ishlarni olib borish kerak.

1. Dzyudochiga xos bo‘lgan barcha harakatlar va malakalarni o‘zlashtirish (razvedka qilish, hujum, qarshi hujum, himoya, faollikni namoyish etish va boshqalar).

2. Dzyudochi texnik-taktik tayyorgarligining individualligi bellashuvda vujudga kelgan vazifani mahorat bilan hal etish, o‘z usullari, texnik usullar amaliyoti asosida quriladi.

3. Bellashuvda dzyudochining hulqi o‘zini tutishi bo‘yicha turli algoritmlarni shakllantirish. Ushbu yo‘nalish alohida harakatlarni yaxlit kompleksga birlashtirishga olib keladi. Masalan, razvedka qilish - ustunlikka ega bo‘lish; - faollikni namoyish etish; ustunlikka ega bo‘lish -uni ushlab turish; ustunlikka ega bo‘lish - xavfli holatlarni amalga oshirish va

hokazo.

Xulosa.

Shunday qilib, sport amaliyotining ko‘rsatishicha, hozirgi vaqtda turli yo‘nalishdagi yakkakurash sport turlarida malakali sportchilarni tayyorlashni modellashtirish asosiy uslublardan biri bo‘lib bormoqda.

Shu bilan birga, bizning nazarimizda, modellashtirish uslubini dzyudochilarning o‘quv-mashg‘ulot jarayoni tayyorgarlik bosqichida qo‘llash samarali bo‘ladi. Bizning fikrimizcha, o‘quv-mashg‘ulot jarayonida qo‘llash uchun mashg‘ulotlarda musobaqa sharoitini modellashtirishga yordam beradigan matematik turdagi modellarni qo‘llash ancha qulaydir. Sport kurashlariga to‘g‘ri keladigan qarshilik ko‘rsatish modellarini ishlab chiqish uchun musobaqalarda ishtirok etish, unga tayyorgarlik jarayonlari dialektik birlik va qarama-qarshilikda turishi uslubiy asosihamda natijasi bo‘lib xizmat qiladi va sport faoliyatining ajralmas jihati, uni rivojlantirishning asosiyshartlaridan biri hisoblanadi [7; 70-b, 11; 590-b]. Bu shunda aks etadiki, o‘quv musobaqalarini tashkillashtirish va o‘tkazish modellarini ishlab chiqishda, sportchining o‘z shaxsiy musobaqalardagi tajribasi, texnik-taktik tayyorgarligiuning asoslarini oshirishiga yordam beradi.

Mazkur holatda, musobaqalarda metodik usullarni qo‘llash, ko‘p yillik tayyorgarlik siklining boshlang‘ich bosqichida dzyudochilarning tayyorgarlik shakli sifatida texnik-taktik harakatlarni alohida jihatlarini vaziyatga qarab modellashtirish; texnik-taktik harakatlarni rasmiy modellashtirish; dzyudoning alohida jihatlarini amalga oshirishda qarama-qarshilik; dzyudochilarning musobaqada qarshilik ko‘rsatishlarining ko‘rinishlari va vaziyatni funksional ravishda modellashtirish; vazifalarni sheriklar va raqiblar bilan amalga oshirish hisoblanadi.

Musobaqalardan metodik usul sifatida foydalanish, o‘quv-mashg‘ulot darslarida tayyorgarlikning ko‘p yillik siklining boshlang‘ich bosqichida dzyudochilarni tayyorlash uslubi sifatida kurashning standart vaziyatlarini modellashtirish; tatami chetida va raqibning kimonosidan ushlash uchun faol kurashish taktikasini modellashtirish; qo‘shimcha imkoniyatlarni oshirish asoslarini tuzish va musobaqa tajribalari asoslari uchun alohida musobaqalar sharoitini modellashtirish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Аккуин Д.Ю. Модель построения тренировки юных дзюдоистов на начальных этапах подготовки / Д.Ю. Аккуин // Ученые записки университета им. П.Ф. Лесгафта. - 2012. -№1 (83). - С. 11-15.

2. Акопян А.О. Дзюдо: Примерная программа для системы дополнительного образования детей: детско-юношеских спортивных школ, специализированных детско-юношеских школ олимпийского резерва /А.О. Акопян, В.В. Кащавцев, Т.П. Клименко. - М: Советский спорт, 2010. - 95 с.

3. Бучнев А.А. Модель повышения спортивного мастерства квалифицированных дзюдоистов /А.А. Бучнев //Теория и практика физической культуры. - 2012. - №1. - С. 47-49.

4. Галькин В.Н. Оптимальная модель годичного тренировочного цикла групп спортивного совершенствования «дзюдо» в образовательных организациях МВД России: автореф. дис. … д-ра пед. наук / В.Н. Галькин. - Москва. - 2015. - 28 с.

5. Дзигаро Кано. Кодокан дзюдо /Кано Дзигаро. - Ростов-на-Дону: «Феникс», 2000. - 448 с.

6. Еганов А.В. Тактика ведения соревновательной схватки дзюдоистов [Электронный ресурс] /А.В. Еганов // Подготовка единоборцев: теория, методика и практика: сб. материалов VI Всерос. науч.-практ. конф. /под ред. В.В. Зебзеева. - Чайковский, 2018. - С. 30-33.

7. Игуменов В.М. Теоретико-методические основы системы многолетней тренировки борцов высокой квалификации и пути повышения эффективности их подготовки в институтах физиче-

ской культуры: автореф. дис. … д-ра пед. наук /В.М. Игуменов. - Москва. - 1992. - 70 с.

8. Керимов Ф.А., Умаров М.Н. Спортда прогнозлаштириш ва моделлаштириш. Дарслик. Ф.А. Керимов, М.Н. Умаров. - ЎзДЖТИ нашриёт - матбаа бўлими, 2005. - 275 б.

9. Кудряшов Е.В. Параметры физической подготовленности баскетболисток массовых разрядов. ТиПФК №10. - 2017. - С. 63-64.

10. Никитушкин В.Г. Теория и методика юношеского спорта /В.Г. Никитушкин. - М.: Изд-во «Физическая культура», 2010. - 208 с.

11. Ткачев Е.В. Особенности специальной силовой тренировки дзюдоистов /Е.В. Ткачев, З.В. Курасбедиани //Актуальные проблемы развития физической культуры и спорта в современных условиях. - 2016. - №1. - С. 212-216.

12. Чумаков Е.М. Масштабы соревновательной деятельности борца /Е.М. Чумаков //Теория и практика физической культуры, 1999. - №2. - С. 16-20.

13. Юшкевич Т.П. Научно-методические основы системы многолетней тренировки в скоростно-силовых видах спорта циклического характера: автореф. дис. ... д-ра пед. наук /Т.П. Юшкевич. - М.: ГЦОЛИФК, 1991. - 41 с.

Юлдашев Ильхомжон Шавкат угли
Преподаватель Наманганского государственного университета
E-mail: ilkhomjony@gmail.com

ПРИМЕНЕНИЕ МЕТОДИЧЕСКИХ ПРИЕМОВ СОРЕВНОВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА НАЧАЛЬНОМ ЭТАПЕ ПОДГОТОВКИ ДЗЮДОИСТОВ

Аннотация. В данной статье представлен анализ мнений и мнений наших отечественных и зарубежных ученых относительно применения методических приемов соревновательной деятельности на начальном этапе подготовки дзюдоистов.

Ключевые слова: этап начальной подготовки, дзюдоисты, соревновательная деятельность, средства и методы.

Yuldashev Ilkhomjon Shavkat ugli
Teacher of Namangan State University
E-mail: ilkhomjony@gmail.com

APPLICATION OF METHODICAL METHODS OF COMPETITION ACTIVITY AT THE INITIAL STAGE OF JUDOKA TRAINING

Annotation. This article presents an analysis of the opinions and opinions of our country and foreign scientists regarding the application of methodical methods of competition activities at the initial stage of judoka training.

Key words: initial training stage, judoka, competitive activity, tools and methods